

Toshkent viloyati Bekobod shahar

3-umumta'lim maktab

ona tili va adabiyot o'qituvchisi

N.Egamberdiyevaning

7-“A” sinfda o'tkazgan bir soatlik

DARS ISHLANMASI

30.10.2014-y.

DARS MUQADDAS.

7-“A” sinf. Ona tili.

Darsning mavzusi: Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari.

Darsning maqsadi:

a) **ta'limiy maqsad:** o'quvchilarga olmoshlarning tuzilishi haqida ma'lumot berish.

b) **tarbiyaviy maqsad:** o'quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

d) **rivojlantiruvchi maqsad:** o'quvchilarni mustaqil fikrlash va voqealar tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Darsning jihozi: Olmoshlarning tuzilishiga ko'ra turlari tushirilgan jadval.

Darsning uslubi: o'yin, induktiv usullar.

Darsning shiori: Vatanni sev, vatanparvar bo'!

DARSNING BORISHI.

a) o'quvchilarni darsga tayyorlash;

b) davomatni aniqlash.

“Ezgu so'z” o'yini o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi guruh a'zolariga, guruh a'zosi raqib guruhlariga ezgu so'z aytadilar.

O'qituvchi tomonidan bugungi dars odatdagidek o'yin musobaqa tarzida o'tkazilishini aytadi va g'olib guruh uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i taqdim etilishini e'lon qiladi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

1-mustaqil ish – “odob” guruhi uchun A.Oripovning “O'zbekiston” qasidasidan parcha:

*Yurtim, senga she'r bitdim **bu** kun,*

Qiyosingni topmadim aslo.

*Shoirilar bor, o'z yurtin **butun** –*

Olam aro atagan tanho.

***Ular** she'ri uchdi ko'p yiroq,*

Qanotida kumush diyori.

Bir o'lka bor dunyoda biroq,

Bitilmagan dostondirbori:

*Faqat ojiz qalamim **manim**,*

*O'zbekiston, Vatanim **manim**.*

Vazifa: Berilgan she'riy parchadan olmoshlarni belgilang va ma'no turini aniqlang.

Vazifa: 2-mustaqil ish: "Axloq" guruhi uchunuyga berilgan 79-mashq bo'yicha "Mustaqillik yillarida ona tilimiz rivoji" mavzusidagi matnni tahlil qilish.

3-mustaqil ish: "Intizom" guruhi uchun.

Vazifa: "Ha – yo'q" o'yini uchun 4 ta savol tuzish.

Yangi mavzuni tushuntirish.

1-topishmoqda berilgan gaplar o'qitilib, olmoshlar topiladi.

1. **Men undan** so'radim: Mehringni qo'yib, bunchalar saralab gul terding **kimga?** (Q.Muhammadiy).

2. Bir vaqtlar qarshimdan o'tsang, **seni** derdim oddiy yo'lovchi (Shukrullo).

3. Shu-shu biz bordi-keldi qilamiz. (A.Rahmat).

O'quvchilar olmoshlarni aytib turini aytib beradi. So'ng o'qituvchi nazariy qoidani izohlaydi.

Olmoshlar tuzilishiga ko'ra soda, qo'shma, juft va taroriy bo'ladi.

Soda olmoshlar bir asosdan iborat bo'ladi.

Masalan: men, siz, hamma, kimdir.

Qo'shma olmoshlar ikki asosdan iborat bo'ladi.

Masalan: mana shu, hech kim.

Juft olmoshlar bir biriga yaqin bo'lgan olmoshlarning birikuvidan hosil bo'ladi.

Masalan: u-bu, biz-siz, ana-mana.

Takroriy olmoshlar bir olmoshning aynan yoki ayrim tovush o'zgarishi bilan takrorlanishidan hosil bo'ladi.

Masalan: o'sh-o'sha, sh-shu, mana-mana.

Yangi mavzuni mustahkamlash va o'quvchilarni baholash.

a) 81-82-83-84-mashqlarni bajarish.

b) **Topishmoq o'yini** orqali olmosh haqidagi bilimlarini mustahkamlash.

Uyga vazifa.

85-mashq "Mustaqillik bizga nima berdi"? mavzusida matn tuzish va undagi qoshma olmoshlarning tagiga chizish.